



## INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XITOIY VA SINGAPUR TAJRIBASI

*Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li -  
Toshkent moliya instituti, Baholash ishi va  
investitsiyalar kafedrasida dotsenti v.b. PhD*

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a59](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a59)

**Annotatsiya.** Maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirish borasida Xitoy va Singapur davlatlarining xorijiy investitsiyalarini jalb qilishdagi tajribalarini O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion muhit, xorijiy investitsiya, jozibadorlik, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar.

## ОПЫТ КИТАЯ И СИНГАПУРА В ПОВЫШЕНИИ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ

*Хошимов Жаҳонгир Равшанбек ўғли -  
Ташкентский финансовый институт, в.б.доцент  
PhD кафедры «Оценочное дело и инвестиции»*

**Аннотация.** В статье рассматривается важность повышения привлекательности инвестиционной среды в привлечении иностранных инвестиций в национальную экономику. Кроме того, были разработаны предложения и рекомендации по повышению привлекательности инвестиционной среды Нового Узбекистана и применению опыта Китая и Сингапура по привлечению иностранных инвестиций в экономику Узбекистана.

**Ключевые слова:** инвестиционный климат, иностранные инвестиции, привлекательность, прямые иностранные инвестиции.

## THE EXPERIENCE OF CHINA AND SINGAPORE IN INCREASING THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT

*Khoshimov Jahongir Ravshanbek ugli -  
Tashkent Financial Institute, Associate Professor  
PhD the Department "Appraisal and Investments"*

**Abstract.** The article examines the importance of increasing the attractiveness of the investment environment in attracting foreign investments to the national economy. In addition, proposals and recommendations developed to increase the attractiveness of the investment environment in New Uzbekistan and to apply the experiences of China and Singapore in attracting foreign investments in the economy of Uzbekistan.

**Keywords:** investment climate, foreign investment, attractiveness, foreign direct investment.

**Kirish.** Jahon iqtisodiyotida global, milliy, mintaqaviy va hududiy investitsion muhit jozibadorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish bugungi kunda o'ta dolzarb masalalardan sanaladi. Shuningdek, xalqaro nufuzli moliya muassasalari, xususan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari singari xalqaro tashkilotlar tomonidan investitsion muhit jozibadorligini baholash va samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish, erkin iqtisodiy zonalarining iqtisodiy-huquqiy maqomini oshirish va ularni optimal joylashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib, biz mamlakatimiz investitsion muhit jozibadorligini oshirishda Xitoy va Singapur tajribasini o'rganib chiqamiz.

O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning inves-

titsion siyosat izchilligiga ishonchini mustahkamlash va davlat tuzilmalarining investorlar bilan ishlashdagi mas'uliyatini oshirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish, balanslashgan investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Investitsion muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, mahalliy iqtisodchi olimlarning ta'riflarini ko'rib chiqamiz.

Iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: "Investitsiya muhiti xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imko-

niyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" [1]. Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuyi investitsiya muhitini anglatadi.

"Investitsiya muhiti" va "investitsiya iqlimi" sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususan iqtisodchi-olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoraliyev tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi" [2].

E.Xazanovchining ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning roli, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish shakllari, qulay investitsiya muhitining chet el sarmoyalarini jalb qilishdani roli tadqiq qilingan hamda xorijiy sarmoyalarni faol jalb qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

Yu.Leonovanning ilmiy asarlarida Rossiy Federatsiyasi hududlarida investitsion faollikni ta'minlash va xorijiy kompaniyalarning investitsiyalarini jalb qilish yo'llari va afzalliklari yoritilgan [4].

Investitsion jozibadorlikni aniqlashning muhim shartlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: mintaqalarning tabiiy sharoiti, shakllangan ish-bilarmonlik muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-boshqaruv tamoyillari, aholining tadbirkorlik subyektlarini boshqarishga tayyorligi, tavakkalchilikni anglash va mehnat resurslarining malakasi va turli institutsional tizimlarning mavjudligi hamda ularning rivojlanishi [5].

Investitsion jozibadorlik potensial investorga mavjud mablag'larni investitsiya qilish maqsadida ma'lum bir investitsiya obyekti boshqalariga qaraganda qanchalik jozibador ekanligini baholashga imkon beradigan xususiyatlar to'plami hisoblanadi [6]. Investitsion jozibadorlikning oshishi zamonaviy raqobat sharoitida kompaniyaning samarali ishlashi, rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi [7].

Korxonalarining investitsion jozibadorligi bevosita mamlakatdagi investitsiya siyosati va yaratilgan investitsion muhitiga bog'liq. Xususan, investitsiya muhiti uchta qismdan iborat tizim sifatida ko'rib chiqiladi: investitsiya salohiyati, investitsiya riski va qonunchilik shartlari [8]. Iqtisodiy rivojlangan

mamlakatlarda investitsiya jarayoni bozor konyunkturasi ta'siri, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va hajmiga bog'liq [9].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, dinamikada o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan yilga investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda. Shular qatorida iqtisodiy rivojlanishi boshqa davlatlarga qaraganda tez sur'atlarda o'sib borayotgan, tovar va xizmatlari dunyoning barcha o'lkalarida tarqalgan, bugungi kunda uchta eng ko'p tarqalgan so'z - «Made in China», deya e'tirof etilayotgan Xitoyning tajribasini ko'rib chiqamiz.

Xitoyda davlat tomonidan investitsiyalar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan tizimli chora-tadbirlar, ishlab chiqilgan dasturlar va loyihalar tufayli xalqaro bozorlarni zabt etishga muvaffaq bo'lindi. Mazkur davlat 1970-yildayoq mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishni davlat siyosati darajasidagi eng muhim vazifalardan biri sifatida ko'targan edi. Birinchilardan bo'lib «maxsus iqtisodiy zonalar»ni tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qildi va ularning rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo etdi.

Shuningdek, Xitoy rahbariyati tomonidan rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida yengil sanoat va elektronika sohalari tanlab olindi. Ularning to'laqonli rivojlanishi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va zaruriy resurslarni xarid qilishi uchun davlat tomonidan subsidiyalar tizimi va «eksport uchun tarmoq» dasturi ishlab chiqildi.


Xitoyning tez sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir muhim omil investorlar uchun zarur bo'ladigan, hududlarning imkoniyatlari va salohiyatlarini namoyon etadigan ma'lumotlar bazasini (pasportni) ishlab chiqqanligi va arzon ishchi kuchiga egaligi bilan belgilanadi. Ushbu baza internet-resurs sifatida ochib qo'yilganligi Xitoy korxonalarini uchun xorijiy investitsiyalarning oqib kelishi va biznes hamkorlikning kuchayishini ta'minladi. Bugungi kunda Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyi hamda iqtisodiyotning yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashga xizmat qilgan omil ham, aynan, uning ochiqligi, sog'lom imiji va investitsion jozibadorligidir.

Xitoy davlati Butunjahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi bilan ko'plab sohalarda tub islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, quyidagi muhim yo'nalishlarda: turli xildagi tariflarni pasaytirish; iqtisodiyotning yetakchi sohalari, xususan, xizmat-

lar: telekommunikatsiya, sug'urta, bank, savdo, logistika sohalariga yo'naltiriladigan investitsiyalarga to'siq va cheklovlarni olib tashlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni keltirish mumkin. Ushbu yaratilgan imkoniyat va sharoitlar tufayli nafaqat transmilliy kompaniyalar, balki kichik va o'rta hajmdagi xorijiy kompaniyalarning Xitoy davlatiga investitsiya kiritish bilan bog'liq faolligi yanada oshdi. Shular tufayli Xitoyga kiritilgan TTXI hajmining oshishi yildan yilga o'sib bordi.

1-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2011-2021-yillarda Xitoyga jalb qilingan to'g'ri-

dan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijaga erishishiga sabab Xitoy Xalq Respublikasida investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, investitsion muhiti va jozibadorligi yaxshi yaratilganidan dalolat beradi. Jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida, xususan, "Global raqobatbardoshlik indeksi", "Global innovatsion indeks" va "Biznes muhiti hafi indeksi"larida faol ishtirok etib kelishi sabab ushbu natijalarga erishgan.



1-rasm. 2011-2021-yillarda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yillik oqimi (milliard AQSh dollarida) [10]


2021-yilda Xitoyga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining qiymati qariyb 181 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 21 foizga oshgan.

Ilmiy ishimizni yanada chuqurlashtirish, uning saviyasini oshirish maqsadida Singapur davlatining tajribasini ham tahlil qilamiz. Rivojlanish darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan, o'zining boy tajribasi va intellektual salohiyatining yuksakligi bo'yicha dunyo mamlakatlari ichida yuqori o'rinlarda turadigan, aholisi soni unchalik ham katta bo'lmagan, ammo kompyuter dasturlarini yaratish, telekommunikatsiya sohasida salmoqli nufuzga ega bo'lgan, Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda jon boshiga YaIM ishlab chiqarish bo'yicha (xarid quvvati pariteti bo'yicha) 3-o'rinda turgan, «osiyo yo'lbarlari», deb nom olganlardan biri bo'lmish Singapur davlatida ham investitsion muhitni yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish yuzasidan boy tajriba to'plangan.

Singapur davlatining rivojlanish yo'li, qo'lga kiritgan «iqtisodiy mo'jizasi» bilan shug'ullangan barcha olimlarning fikri bir muhim nuqtaga borib taqaladi. U ham bo'lsa, Singapurda qulay investitsiya muhitining yaratilganligi. Aynan ushbu holat tufayli investorlar tomonidan bu yangi davlatga

ko'plab loyihalar kiritish amalga oshdi, YaIM hajmi yildan yilga keskin ortib bordi. Bugungi kunda ham investorlar tomonidan Singapur davlatiga hech ikkilanmasdan kapital mablag'lar yo'naltirib kelinmoqda. U yerdagi investitsion muhit jozibadorligi donor mamlakatlarning doimiy qiziqishiga sabab bo'lmoqda. 2-rasm ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-yil uchun Singapurda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 74,75 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2019-yilga nisbatan 32,95 foizga kamaygan. 2019-yilda Singapurda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 111,48 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2018-yilga nisbatan 37,32 foizga ko'p. 2018-yil uchun Singapurda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 81,18 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2017-yilga nisbatan 18,17 foizga kamaydi. 2017-yilda Singapurda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 99,21 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2016-yilga nisbatan 51,78 foizga ko'pligini ko'rishimiz mumkin.

AQShdan Singapurga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 244 milliard AQSh dollaridan oshdi. Bugungi kunda Singapurdagi barcha to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 20 foizdan ortig'i AQSh kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**2-rasm. 2000-2020-yillarda Singapurga jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi mlrd. AQSh dollarida, YaIMga nisbati foizda [11]**

Ishbilarmonlik muhitining yuqori ekanligiga Singapurning jahon kapital bozoridagi ishtiroki orqali ham baho berish mumkin. Singapur Janubiy-sharqiy Osiyoda TTXI qabul qiluvchi asosiy davlatlardan biri hisoblanadi. Jahon banki guruhi va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilinib kelinayotgan Doing Business indeksida 10 yildan buyon Singapur 1-o'rinni egallab kelmoqda. Olib borilgan izlanishlar va o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, Singapurda biznesni ochish va uni yuritish bo'yicha yaratilgan sharoitlar va yuqori natijaga erishishda davlat siyosiy tizimining barqarorligi, samarali iqtisodiy siyosat, yuqori investitsion imkoniyatning mavjudligi va infratuzilmaning rivojlanganligi ta'sir ko'rsatgan.

Yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'rganish asnosida aniq bo'ldiki, Singapur va Xitoy tajribasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etish, ulardan foydalanish kelajakda mamlakatning bundanda yuqori sur'atlarda rivojlanishi, aholining daromad manbayi ko'payishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan so'rovnomalarda faol ishtirok etish, jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida O'zbekistonning ham ishtirokini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish kelajakda investorlarning investitsiyalarni kiritish bo'yicha qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Investitsion muhit jozibadorligini oshirishda Xitoy va Singapur tajribasi bo'yicha quyidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Xitoy Xalq Respublikasi va Singapur davlatlarining tajribasi, bosib o'tgan yo'li, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'lida mamlakatning inves-

titsion muhitni sog'lomlashtirish borasida qabul qilgan qonunlari, ishlab chiqqan qarorlarini o'rganish, investitsiyalarni kengroq jalb etish bo'yicha ishlab chiqqan usul va uslublarining kerakli jihatlarini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish muhim masalalardan hisoblanadi. Zero, to'plangan tajribalarning mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tatbiq etilishi tavakkalchilikni pasaytirish, mavhumlikning oldi olinishi, yuqori samaradorlikning ta'min etilishiga olib keladi.

2. Chunki tayyor tajribalar vaqt sinovidan o'tgan bo'ladi. Eng asosiysi, yillar davomida qo'llanilib kelinayotgan usullar takomillashib boradi. Shuning uchun ham ilg'or tajribalardan foydalanish muvaffaqiyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Mulohazalarni chuqurlashtirgan holda, ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston uchun ham investitsiya sohasini liberalashtirish, uning jozibadorligini oshirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish, respublikada erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish bo'yicha huquqiy bazani yanada takomillashtirish yuzasidan xorijiy tajribalardan unumli foydalanish taraqqiyotning garrowi hisoblanadi.

3. Xitoy Xalq Respublikasi va Singapur mamlakatlari kabi O'zbekistonning ham xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan so'rovnomalarda faol ishtirok etishi, jahon mamlakatlarining investitsion jozibadorligini ko'rsatadigan reytinglarning barchasida, xususan, "Global raqobatbardoshlik indeksi", "Global innovatsion indeks" va "Biznes muhiti hafi indeksi"larida ishtirokini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kelajakda investorlarning investitsiyalarni kiritish bo'yicha qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010. – 153 b.
2. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.
3. Хазанович Э.С. Иностранные инвестиции. Учебное пособие. 3-е изд., перераб. – М.: КноРус, 2013. – 311 с.
4. Леонова Ю.Ю. Региональные интересы и факторы инвестиционной активности зарубежных компаний в России. Монография. – М.: ЛЕНАНД, 2015. – 195 с.
5. Mustafakulov Sh. Investment Attractiveness of Regions: Methodic Aspects of the Definition and Classification of Impacting Factors. // European Scientific Journal, edition Vol.13, № 10, April 2017. P. 17; <https://core.ac.uk/download/pdf/236407742.pdf>
6. Yurii A.Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562-571; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042813039712>
7. Волик О.А., Солнцева О.Г., Цунаева Ю.О. Повышение инвестиционной привлекательности торговых предприятий. // Вестник университета. № 6, 2018. С. 6.
8. Oksana V.Takhtumova, Elena V.Kasatkina, Elena A.Masliхова, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations. // Revista ESPACIOS, Vol. 39 (Number 37). 2018. P. 12. <http://www.revistaespacios.com/a18v39n37/a18v39n37p06.pdf>
9. Svitlana Gutkevych. Investment Attractiveness of Industries: Features and Trends. // Baltic Journal of Economic Studies, vol. 5, № 3, 2019. P. 9. [https://www.researchgate.net/publication/334967088\\_INVESTMENT\\_ATTRACTIVENESS\\_OF\\_INDUSTRIES\\_FEATURES\\_AND\\_TRENDS/link/5d4822524585153e593d6592/download](https://www.researchgate.net/publication/334967088_INVESTMENT_ATTRACTIVENESS_OF_INDUSTRIES_FEATURES_AND_TRENDS/link/5d4822524585153e593d6592/download)
10. <https://www.statista.com/statistics/1016973/china-foreign-direct-investment-inflows/> statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.
11. <https://www.macrotrends.net/countries/SGP/singapore/foreign-direct-investment> statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



### **СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ХАЛҚАРО ТАЖРИБАСИ**

**Курбанов Данияр Розумбаевич -**  
Ўзбекистон Республикаси  
Ҳисоб палатаси ходими и.ф.д.

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss2/a60](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a60)

**Аннотация.** Мақолада сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг халқаро тажрибаси бўйича тадқиқот олиб борилган бўлиб, хорижий олимларнинг тадқиқотлари асосида илмий тадқиқотлар ўрганилган. Сувнинг иқтисодий аҳамияти атрофлича ўрганилиб, ундан самарали фойдаланиш бўйича таклиф ва хулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** сув ресурслари, ишлаб чиқариш, самарадорлик, сув истеъмоли.

### **МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ**

**Курбанов Данияр Розумбаевич -**  
Сотрудник Счетной палаты  
Республики Узбекистан, д.э.н.

**Аннотация.** В статье проведено исследование международного опыта повышения эффективности использования водных ресурсов, а также изучены научные исследования на основе исследований зарубежных ученых. Всесторонне изучено хозяйственное значение воды, сформулированы предложения и выводы по ее эффективному использованию.

**Ключевые слова:** водные ресурсы, производство, эффективность, водопотребление.

### **INTERNATIONAL EXPERIENCE OF INCREASING THE EFFICIENCY OF THE RATIONAL USE OF WATER RESOURCES**

**Kurbanov Daniyar Rozumbaevich -**  
Employee of the Accounts Chamber of  
the Republic of Uzbekistan, DcS,

**Abstract.** In the article, research was conducted on the international experience of increasing the efficiency of water resources use, and scientific research was studied based on the research of foreign scientists. The economic importance of water has been thoroughly studied, suggestions and conclusions on its effective use have been formulated.

**Key words:** water resources, production, efficiency, water consumption.